

O'ZBEKISTONDA AHOLINING O'SISH SUR'ATI

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalar fakulteti

ST-63 guruh talabasi

Qudratov Fatxulla Atabullo o'g'li

nargizaqudratova024@gmail.com

+998917116004

Ilmiy rahbar: *TDIU, Statistika kafedrası dotsenti*

Akbarova Barno Shuxratovna,

b.akbarova@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda aholining o'sish sur'ati tahlil qilingan. 2019–2023-yillar davomida tug'ilishlar sonining o'sishi statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqilib, hududlar kesimida demografik o'zgarishlar baholangan. Maqolada tug'ilish darajasining ortishiga ta'sir qiluvchi omillar, jumladan, demografik siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va urbanizatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar aholining o'sish tendensiyalarini tushunishga va kelajak rejalashtirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, aholi o'sishi, tug'ilish darajasi, demografiya, statistika, hududiy tahlil, urbanizatsiya, demografik siyosat, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy omillar.

Аннотация: В данной статье анализируются темпы роста населения Узбекистана. За 2019-2023 годы на основе статистических данных рассмотрен рост числа родившихся и оценены демографические изменения в разрезе регионов. В статье анализируются факторы, влияющие на рост рождаемости, включая демографическую политику, социально-экономические условия и

процессы урбанизации. Полученные результаты помогают понять тенденции роста населения и планирование на будущее.

Ключевые слова: Узбекистан, рост населения, рождаемость, демография, статистика, территориальный анализ, урбанизация, демографическая политика, экономическое развитие, социальные факторы.

Abstract: This article analyzes the population growth rate in Uzbekistan. The growth in the number of births during 2019–2023 is examined based on statistical data, and demographic changes are assessed by region. The article analyzes the factors affecting the increase in the birth rate, including demographic policy, socio-economic conditions, and urbanization processes. The results obtained help to understand population growth trends and plan for the future.

Keywords: Uzbekistan, population growth, birth rate, demography, statistics, territorial analysis, urbanization, demographic policy, economic development, social factors.

Kirish: O‘zbekiston aholisi yil sayin ortib bormoqda. Bu jarayon tabiiy o‘shish – tug‘ilish darajasining o‘lim darajasidan yuqori bo‘lishi natijasida yuz beradi. Demografik o‘shish mamlakat iqtisodiyoti, infratuzilmasi va ijtimoiy sohalar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada 2019–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda tug‘ilish darajasi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Tug‘ilishlar soni bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlar

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha tug‘ilishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Quyidagi jadvalda yillar kesimida tug‘ilish ko‘rsatkichlari keltirilgan:

Yil	Tug'ilganlar soni O'zbekiston bo'yicha
2019	814960
2020	841817

2021	905211
2022	932217
2023	961962

Ushbu raqamlarga e'tibor bersak, 2019-yildan 2023-yilgacha tug'ilishlar soni 146 000 nafarga oshgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi yillarda sezilarli o'sish kuzatilgan. Bu aholining tabiiy ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Viloyatlar bo'yicha tug'ilishlar tahlili

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41137	39286	40272	42835	44021
Andijon viloyati	77603	81425	84664	86506	89400
Buxoro viloyati	41141	41555	43173	45058	46617
Jizzax viloyati	36457	38118	41313	40743	40875
Qashqadaryo viloyati	86728	90330	97079	98279	101852
Navoiy viloyati	22770	23888	26576	26274	26805
Namangan viloyati	71830	74720	79968	82330	84496

Samarqand viloyati	100 656	101 414	110 455	111 505	113 986
Surxondaryo viloyati	726 80	746 58	809 75	815 47	876 95
Sirdaryo viloyati	207 44	210 53	232 44	233 20	232 29
Toshkent viloyati	640 86	659 54	726 59	735 56	731 71
Fargʻona viloyati	877 51	930 37	991 46	101 308	106 497
Xorazm viloyati	410 92	419 78	426 53	449 20	483 01
Toshkent shahri	502 85	544 01	630 34	740 36	750 17

Hududiy tahlil;

1. Eng yuqori tugʻilish darajasi Samarqand (113 986), Fargʻona (106 497) va Qashqadaryo (101 852) viloyatlarida kuzatilgan.
2. Eng past tugʻilish darajasi Navoiy (26 805), Sirdaryo (23 229) va Qoraqalpogʻiston Respublikasida (44 021) qayd etilgan.
3. Eng tez oʻsayotgan hududlar Toshkent shahri (2019-yilda 50 285 nafar, 2023-yilda 75 017 nafar), bu esa poytaxt aholisining tez ortib borayotganini koʻrsatadi.



Tug'ilish ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar

Aholi o'sish sur'atiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Demografik siyosat – Hukumat oilaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirmoqda.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit – Daromadlar oshishi va yashash sharoitlari yaxshilanishi oilalarning ko'proq farzand ko'rishiga yordam bermoqda.
3. Sog'liqni saqlash tizimi rivoji – Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar tug'ilish darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.
4. Urbanizatsiya – Katta shaharlarga ko'chib o'tish aholining qayta taqsimlanishiga sabab bo'lmoqda, Toshkent shahri bunga misol bo'la oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'zbekistonda aholining o'sish sur'ati va demografik jarayonlar haqida turli ilmiy maqolalar, rasmiy hisobotlar va statistik nashrlar mavjud. Quyida ushbu mavzuni chuqurroq o'rganishga yordam beradigan asosiy adabiyotlar sharhi keltirilgan.

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari

Ushbu rasmiy nashrlar yillik demografik ma'lumotlarni taqdim etadi. Tug'ilish, o'lim, migratsiya va umumiy aholining o'sish sur'ati haqidagi aniq statistikalar keltiriladi.

Manba: www.stat.uz

2. "O'zbekiston demografik rivojlanish tendensiyalari" – Ilmiy maqolalar to'plami

Ushbu to'plamda aholining tabiiy o'sishi, yosh tarkibi va tug'ilish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan.

O'zbekistonda tug'ilish sur'atining hududlar kesimidagi farqlari, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar bilan bog'liq holda o'rganilgan.

3. "O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning iqtisodiyotga ta'siri" – (I.A. Karimov nomidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali)

Mazkur tadqiqotda aholining o'sishi mehnat bozori, urbanizatsiya va infratuzilma rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi tahlil etilgan.

Xulosa: O'zbekistonda aholi soni tabiiy o'sish hisobiga yildan-yilga ortib bormoqda. 2019-yildan 2023-yilgacha tug'ilishlar soni 18% ga ko'paygan. Eng yuqori tug'ilish darajasi Samarqand, Farg'ona va Qashqadaryoda, eng past ko'rsatkich esa Navoiy va Sirdaryoda kuzatilmoqda. Poytaxt Toshkent shahri esa eng tez o'sayotgan hududlardan biri hisoblanadi.

Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan demografik va ijtimoiy dasturlar ushbu o'sish sur'atining barqaror davom etishiga xizmat qiladi. Kelajakda aholining o'sishi bilan bog'liq infratuzilma va iqtisodiy rejalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2019–2023). O'zbekistonda aholining tabiiy o'sishi va demografik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. Rasmiy veb-sayt: www.stat.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. (2023). O‘zbekistonda aholining o‘sinh sur‘ati va demografik rivojlanish tendensiyalari. Toshkent.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). Tug‘ilish darajasi va aholining tabiiy o‘sinh ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlar. Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. (2023). Aholining o‘sinh sur‘ati va urbanizatsiya jarayonlari O‘zbekistonda. Toshkent.